


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA
KOMMUNIKATSIYALARINI RIVOJLANTIRISH VAZIRLIGI

TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI
URGANCH FILIALI



REFERAT

Mavzu: Mobil operatsion tizim va android uchun office ilovalar.



Topshirdi:

Qabul qildi:

Urganch-2016

Mavzu: Mobil operatsion tizim va android uchun office ilovalar.

Reja:

- 1. Mobil telefon**
- 2. Personal mobil moslamalari**
- 3. Asosiy xarakteristikalar:**

Mobil telefon, uyali telefon yoki **qo'l telefoni** uyali aloqa tizimi bo'ylab ovoz va boshqa axborot uzatuvchi hamda qabul qiluvchi elektron qurilmadir. Zamonaviy mobil telefonlar bundan tashqari internet mijozlari, o'yinlar, infraqizil va bluetooth portlar, video/fotokamera, MP3 player, radio va hokazo ta'minot bilan qurollangan.

Dastlab XX-asr 80-yillarida qo'l telefon aloqa, asosan, analog texnologiyalarga asoslangan, keyinroq mobil telefonda aloqa tizimi sof raqamli tizimga o'tgan. Yevropa mamlakatlarining deyarli har birida o'z milliy tarmog'i ishlab chiqilgan. Mobil telefonga doir xalqaro hamkorlik dastlab ko'chma radioaloqa tizimi masalalari bo'yicha nemis – fransuz tadqiqotlari natijasi sifatida pochta va kommunikatsiyalar ma'muriy xodimlarining Yevropa konfederatsiyasi SERT (*Conference des administrations Europeennes des Postes et Telecommunications*) rahbarligida tashkil etildi. 1982 yil bu int 26 Yevropa mamlakatini, aniqrog'i pochta, telefon va telegraf aloqa RTT (*Post, Telephone and Telegraph*) ma'muriy muassasalarini birlashtirdi. Shu tariqa Yevropa konferensiya "Mobil aloqani ishlab chiqish bo'yicha maxsus guruh" (*GSM*) ni tuzdi. Keyinchalik u "**Mobil aloqa – global tizimi**" deb atala boshladi. Yevropa hududida bu tizim 1993 yil arafasida to'liq faoliyat ko'rsata boshladi. GSM tizimi boshidanoq xalqaro ko'lamdagi tizim sifatida ishlab chiqilgan. Barcha qitalardagi ko'p mamlakatlar unga qo'shilgan. Mobil telefon tizimi inson hayotining barcha sohalariga kirib keldi.

Personal mobil moslamalari (smartfonlar, KPK, planshetlar) zamonaviy ommaning ajralmas qismi bo'lib hisoblanadi. Mobil moslamalarning har bitta foydalanuvchisi ham muloqot, ham biznesni yuritish uchun nihoyatda kuchli asbobga ega bo'ldi. Ko'plab kompaniyalar mobil moslamalardan o'z mahsulot va xizmatlarini sotish hamda reklama qilish, shuningdek, o'z xodimlari bilan doimiy aloqada bo'lish maqsadida foydalanadilar. Ushbu funksiyalarning barchasi mobil moslamalar uchun mahsus yaratilgan turli dasturiy ta'minot yordamida amalga oshiriladi.

Android operasion dasturi mobil moslamalar uchun yangi platforma hisoblanadi. U o'zining ochiqligi va ishlab chiqish uchun bepul va qulay asboblarning mavjudligi bilan tezda mashxur bo'ldi. Shuning uchun Android uchun ilovalarni ishlab chiquvchi kasbi axborot teçnologiyalari sohasida eng yuqori talabga ega bo'lmoqda.

Bugungi kunda bu tizimlardan qulay va samarali foydalanish maqsadida yangidan – yangi office ilovalar yaratilmoqda. Bularga misol qilib quyidagi office ilovalarni keltirish mumkin:

1. **OfficeSuitePro;** 
2. **OfficeSuite+Pro;** 
3. **Polaris Office;** 
4. **WPS Office +** 
5. **Docs To Go – Fresh.** 

Shulardan eng keng tarqalgani – bu **OfficeSuite** ilovasi.

OfficeSuite dasturi Android smartfonlari va planshetlari uchun Word, Exsel va PowerPoint hujjatlarini yaratish, tahrirlash va ulardan oson foydalanish imkonini yaratadi. Bu dastur Mobile Officening ko'pfunksiyalilik bilan fayllarni boshqaradi.

Bu dasturga:

- ▶ 205 ta davlatdan 200 mln qurilma o'rnatilgan va bu jarayon uzluksiz davom qilmoqda;
- ▶ Har kuni 55,000 ta faol holat mavjud;
- ▶ Google Playning Biznes kategoriyalari sahifasiga foydalanuvchilar tomonidan 350,000 ta 1-darajali ilova nomi bilan izoh berilgan.

So'ngi OfficeSuite 8 dasturining funksiyalarini mobil qurilmaning ish stoliga jo'natgandan keyin, quyidagi amallarni bajarilgan bo'ladi:

- ✓ U stolidan yuboriladi va mobil telefon yordami bilan foydalanuvchi interfeysimiz yangilanadi;
- ✓ PDF xavfsizligi va funksiyalar tahriri, raqamli imzoni qo'llab quvvatlash yoqiladi;
- ✓ Bir nechta avtorlarni qo'llab – quvvatlash bilan ular o'rtasidagi o'zaro tushunmovchiliklarni bartaraf etish;
- ✓ Va hokazo.

Asosiy xarakteristikalar:

- ▶ Ofis majmualarini ko'rish, yaratish va tahrirlash;
- ▶ Microsoft formatlari bilan to'liq moslashish, DOC, DOCX, DOCM, XLS, XLSX, XLSM, PPT, PPTX, PPS, PPSX, PPTM lardan foydalanish;
- ▶ PDF fayllarini qo'llab – quvvatlaydi;
- ▶ Qo'shimcha ommalashgan formatlarni ham qo'llab– quvvatlash(RTF, TXT, ZIP, Open Office – ODT, ODS va ODP);
- ▶ Formatlanga hujjatlarni saqlash va kengaytirilgan funksiyalarni tahrirlash;
- ▶ Brauzerda yaratilgan fayllarni “Мои документы” ga tez va oson qabul qilish;
- ▶ Quyidagilar orqali xizmat almashish: *Box, Dropbox, Google drive, OneDrive, Amazon Cloud Drive va SugarSync*, shuningdek, *e – mail, Bluetooth, Wi – Fi Direct*;
- ▶ 56 ta tilni qo'llab – quvvatlaydi;

▶ Tanlanganlar va obektlar o'rnini almashib qolganida bir nechta tugmalar kombitsiyasidan foydalanish mumkin;

▶ Oksford va ingliz lug'atlaridan foydalanish.

OfficeSuite dasturining PREMIUM bo'limi quyidagilarni qo'llab – quvvatlash:

- ❖ Xavfsizlik funksiyasi – fayllarni parollar bilan himoya qilish;
- ❖ PDF dagi ma'lumotlarni Word, Exel yoki EPUD da ochish;
- ❖ Kamera orqali olingan rasmlar yoki hujjatlarni *QuickPDF skaner* da skanerlash;
- ❖ MobileSystems ilovalari rasmlarini tahrirlash uchun kuchli vosita – PhotoSuite ning mavjudligi;
- ❖ Intellektual klaviatura – QuickWrite ning mavjudligi;
- ❖ Hujjatlarni rasmiy litseziyalik harflarda tasvirlash uchun Font Pack ning mavjudligi;
- ❖ Orfografiyani tekshirish, yani hujjatingizning bexato ekaniga ishonch hosil qilish;
- ❖ PowerPoint da slaydlarning harakatlarini tahrir qilish.

OfficeSuite dasturining asosiy interfeysi quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

